

15-ma’ruza Magistrlik dissertatsiyasini ximoyaga tayyorlash tartibi

Dissertatsiyani texnik rasmiylashtirish ishi tugallanganidan keyin magistrant magistraturadagi ta’lim olishning oxirgi va xal kiluvchi boskichi - magistrlik dissertatsiyasini ximoyaga tayyorlashga lozim darajada e’tibor berishi kerak. Bunday tayyorgarlik, avvalo, ximoya bilan boglik xujjatlar va materiallarning rasmiylashtirilishini uz ichiga oladi.

Mualliflik annotatsiyasi.

Tadkikot mavzuining dolzarbliji. Ushbu ishning Uzbekiston uchun amaliy jixatdan dolzarbliji, birinchidan, tobora chukurlashib borayotgan, butun dunyoda yuz berayotgan xalkaro integratsiya va globallashuv jarayonlari bilan boglikdir. Uzbekiston ana shunday jarayonlarning tarkibiy kismi bulishi, jaxon bozorida uzining munosib urnini egallashi kerak.

Muammoning ilmiy ishlab chiqilishi darajasi. Rivojlangan bozor iktisodiyotiga ega chet mamlakatlarning kuyidagi kabi bir kator iktisodchilar utish iktisodiyotiga ega mamlakatlarning tashki iktisodiy siyosati muammolari bilan shugullanishmokda: P.Lindert, R.Pomfret, M.Porter, Dj.Deveryuks, B.Roberte, P.Romer, D.Saks va boshkalar. MDXga a’zo mamlakatlarda bunday muammolarning ayrim jixatlari ustida V.Dermanov, S.Dubinin, A.Terexov, N.Shmelev, S.Jukov va boshkalar ish olib borishmokda. Uzbekistonda tashki iktisodiy faoliyat, tashki savdoni rivojlantirish va respublikaning xalkaro xamjamiyatga integratsiyasiga bagishlangan tadkikotlar A.Alimov, A.Bedrinsev, A.Bekmurodov, D.Jalolov, G.Nazarova, T.Nurullaev, A.Rasulev, N.Sirojiddinov, Z.Adilova, A.Yusupov va boshka olimlar va amaliyotchilarning ilmiy asarlarida uz aksini topgan.

Tadkikot ob’ekti. Ushbu ishda jaxon bozorlariga faol kirib borayotgan Uzbekiston Respublikasining tashki iktisodiy faoliyati tadkikot ob’ekti kilib olingan.

Tadkikotning maksadlari va vazifalari. Jaxon iktisodiyotining tobora kuchayib borayotgan globallashuvi va Uzbekiston Respublikasining jaxon xujaligiga integratsiyasi sharoitida xalkaro savdoda yuz berayotgan tendensiyalar va joriy jarayonlar taxlili tadkikot maksadini tashkil etadi. Tadkikotning vazifasi umuman respublika buyicha va mintakaviy xamda tarmoklar buyicha tashki savdo soxasidagi joriy vaziyat taxlili, shuningdek, Uzbekistonning mintakaviy tashki iktisodiy siyosatini shakllantirishning strategik jixatlarini belgilashdan iborat.

Takdim etilgan ishning **ilmiy yangiligi** Uzbekiston Respublikasining tashki iktisodiy va integratsion alokalaridagi mintakaviy-mamlakatlarga oid ustuvor yunalishlarni, eksportni kengaytirish, mamlakatda sifatli, rakobatbardosh maxsulotlarni ishlab chikarishning roli va urnini belgilashdan iborat.

Ishning amaliy axamiyati shundaki, tadkikotning tashki savdo soxasidagi boshkaruvni takomillashtirishning asosiy yunalishlari yuzasidan anik tavsiyalarning ishlab chikilishi UzR TIA va SV, Xorijiy investitsiyalar buyicha agentlik va boshkalar tomonidan amalda kullanilishi mumkin.

Statistik, taxliliy material respublikaning tegishli oliy ukuv yurtlarida «Jaxon iktisodiyoti», «Xalkaro ikisodiy munosabatlar», «Xalkaro savdo» kurslarini ukitishda kullanilishi mumkin.

Ishning tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati va ilovalardan iborat.

Ishning xulosa kismida xulosalar chikarilgan va tavsiyalar berilgan.

Taqrizlar va baholarning olinishi

Magistrlik dissertatsiyasi majburiy tartibda takriz kilinadi. Opponent dissertatsiya tadkikoti bajarilgan ilm soxasi mutaxassislari ichidan tayinlanadi. Opponent takriz kilinayotgan dissertatsiyaning moxiyati va asosiy koidalarining malakali taxlilini utkazishi, shuningdek, tanlangan mavzuning dolzarbliji, uning ochib berilishiga yondashuvning mustakilligi, uzining nuktai nazari borligi, ilmiy tadkik kilish uslublaridan foydalanish maxorati, xulosalar va tavsiyalarning anikligi darajasi, olingen natijalarning ishonchliligi, ularning yangiligi va amaliy axamiyatini baxolashi kerak.

Ishning ijobiylari bilan bir katorda uning kamchiliklari, jumladan, faktik xatolari va shu kabilar xam kayd kilinadi. Takriz xajmi odatda kompyuterda terilgan ikki saxifadan besh saxifagacha matndan iborat buladi.

Magistrlik dissertatsiyasini ximoya kilishga kafedra mudirining ruxsatini olish.

Lozim darajada rasmiylashtirilgan magistrlik dissertatsiyasi takrizlar bilan birga (ikki nusxada) kafedraga takdim etiladi. Kafedra bu ishni kurib chikib, oldindan ximoya kilish kuni va vaktini tayinlaydi. Oldindan ximoyadan utgan magistrlik dissertatsiyalari kafedraning majlisi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi va ommaviy ximoyaga tavsiya etiladi.

10-15 minutlik ma’ruzaning tayyorlanishi.

Magistrant ilmiy raxbar va tashki opponentning takrizlarini, shuningdek, kafedra mudirining magistrlik dissertatsiyasini ximoya kilish uchun ruxsatini oлгандан sung 10-15 minutlik ma’ruzani tayyorlashga kirishadi.

Magistrlik dissertatsiyasiga takriz va baxolarga talablar

Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy raxbarning takrizi va opponentning tashki takrizi beriladi.

Ilmiy raxbar va opponentning takrizlarida bir kator masalalarning majburiy tartibda yoritilishi nazarda tutiladi.

Ilmiy raxbar takrizining mazmuni

Dissertatsiya mavzuining dolzarbliги

Magistrlik dissertatsiyasi mavzuining magistrantning asosiy ishi bilan boglikligi darajasi

- >• Muallifning magistrlik dissertatsiyasi maksadlari va vazifalarini yoritishi darajasi

Dissertatsiya tadkikotining ilmiy yangiligi

- *- Utkazilgan tadkikot natijalarining asoslanganligi

Tadkikotching ilmiy taxlil kilish kobiliyatining kiskacha tavsifnomasi

Magistrant xulosalari va tavsiyalarining sifati

Dissertatsyaning magistrlik dissertatsiyasiga kuyiladigan talablarga muvofikligi

Opponent takrizi kuyidagilarni aks ettirishi kerak:

1. Dissertatsiya mavzuining dolzarbliги.
2. Dissertatsiya tadkikotining ilmiy yangiligi.
3. Tayyorlangan dissertatsyaning amaliyot uchun axamiyati.
4. Magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va tugallanganligining baxosi.
5. Materialni bayon kilish uslubi va tili.
6. Utkazilgan tadkikotning ilmiy va amaliy kimmati.
7. Dissertatsyaning magistrlik dissertatsiyasiga kuyiladigan talablarga muvofikligi.

Takrizlarda ishning ijobiy tomonlari bilan bir katorda undagi xatolar va kamchiliklar xam kayd kilinadi.

Takrizning xajmi odatda kompyuterda terilgan ikki saxifadan besh saxifagacha matn buladi. Dissertatsiyaning ustunliklari va kamchiliklarining dalillangan tankidiy taxlilini uz ichiga oladigan ushbu xujjat Davlat attestatsiya komissiyasining ishning ximoya kilinishi natijalari muxokama kilinadigan majlisida e'lon kilinadi.

Magistrlik dissertatsiyasining ommaviy himoyasini o'tkazish rusum-qoidalari

Magistrlik dissertatsiyasining ximoyasi ommaviy shaklda utadi, ilmiy munozara tusida buladi va yuksak talabchanlik, prinsipiallik va ilmiy etikaga rioya kilish vaziyatida utadi.

Dissertatsiyaning ximoyasi paytida Davlat attestatsiya Komissiyasi raisi dissertatsiyaning nomini e'lon kiladi, uning muallifining familyasi, ismi-sharifini ma'lum kiladi, shuningdek ishda zarur xujjatlarning mavjudligini bildiradi, magistrantning «ta'limiylar va ilmiy tarjimai xolini», uning uzlashtirishi, mabodo mavjud bulsa, e'lon kilgan makolalarini kiskacha tavsiflaydi.

Suz magistrantning ilmiy raxbariga beriladi. Ilmiy raxbar uz nutkida magistrantning dissertatsiya ustida olib borgan ishga munosabatini ochib beradi, shuningdek attestatsiya komissiyasi, ilmiy raxbarning bergen savollari xususida uz fikrini bildiradi, raislik kiluvchi ilmiy raxbarning dissertatsiya ishi xakidagi yozma xulosasini davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga ukib beradi.

Sungra magistrantning uziga suz beriladi. Magistrant nutkini oldindan tayyorlagan ma'rurasini asosida kuradi (imkonli boricha uni yoddan aytib bergani ma'kul). Tadkikot natijalarini ma'lum kilish uchun unga 15 minutgacha vakt beriladi.

Ma'ruza tadkikotning metodologik bazasini, kuyilgan vazifalar yechimi natijalari va dissertatsiya mavzui buyicha tavsiyalarni uz ichiga oladi. Magistrant asosiy dikkat-e'tiborini utkazilgan tadkikotning asosiy yakunlari, uzi shaxsan ishlab chikkan yangi nazariy va amaliy koidalarga karatadi. Zarur bulganida tayyorlangan slaydlar, jadvallar va grafiklar namoyish kilinishi mumkin.

Nafakat magistrant nutki matnining mazmuni, shu bilan birga nutkning uzi xam ximoya muvaffakiyatini oldindan belgilab beradi. Magistrant nutki anik, imloviy jixatdan tugri, tushunarli va ifodali bulishi kerak. U xamma savollarga ishonch bilan, ilmiy dalillar asosida javob berishi, erkin nutk koidalariiga amal kilishi kerak.

Magistrantning nutkidan keyin raislik kiluvchi bajarilgan dissertatsiyaga rasmiy opponentning takrizini ukib beradi va opponet bildirgan fikrlarga uz javobini aytishi va opponentning xulosalari xamda tavsiyalari yuzasidan fikr-muloxazalarini bayon kilishi uchun magistrantga suz beradi.

Shundan sung muxokama va ilmiy munozara jarayoni boshlanadi. Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari dissertatsiyada kutarilgan muammolar, tadkikot uslublari buyicha xar kanday savollarni berishi, tadkik etish tartib-koidalalarini va tajriba ishi natijalarini aniklashtirishi mumkin.

Bunday savollarga javob berishda fakat ish moxiyatiga daxl kilinishi lozim. Magistrant uzining ilmiy natijalarini baxolashda kamtarinlik va Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolariga nisbatan extiromli munosabat namoyon kilishi zarur.

Javob berishdan oldin savolni dikkat bilan tinglash va zarur bulganida savolni yozib olishi kerak. Xar bir berilayotgan savolga imkonli boricha izchillik bilan javob kaytarish lozim, savollarning xammasini eshitib bulib, fakat shundan keyin bordaniga javob berish yaramaydi.

Munozara tugaganidan sung magistrantga yakunlovchi suz berilishi xam mumkin.

Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolarining yopik majlisida ximoyaga yakun yasaladi. Bunday karor komissiya a'zolari ovozlarining oddiy kupchiligi bilan kabul kilinadi. Ovozlar teng bulib kolganida raisning ovozi xal kiluvchi bulib xisoblanadi. Sungra rais majlisda ishtirok etuvchilarga dissertatsiyasini ximoya kilgan tadkikotchilarga magistrlik akademik darajasining berilishini bildiradi va komissiya majlisini yopik, deb e'lon kiladi.